

THE STORY OF "THE TRAINED BEAR" FROM "LISON UT-TAYR" CHAPTER
LVII [CHAPTER 56]

Jo'rayeva Dilovarxon Valijon kizi

dilovarxonjorayeva05@gmail.com

Student of Kokand State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20325390>

Annotation: This article discusses the issue of teaching the story of the tamed bear from the work of Lison ut-tayr to students based on modern interactive methods. The study analyzes the ideological and artistic features of the story, its mystical and moral content, and its significance in the upbringing of the younger generation. It also shows ways to develop students' independent thinking, text analysis skills, and spiritual worldview through interactive methods such as "Brainstorming", "Cluster", "Discussion", and "Role Entry". The article serves as a methodological recommendation for teachers of secondary schools and higher education institutions.

Keywords: Lison ut-tair, Alisher Navoi, the story of the tamed bear, interactive methods, mystical interpretation, artistic analysis, educational technologies, moral education, cluster method.

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi Alisher Navoiy yaratgan Lison ut-tayr dostoni o'zining yuksak badiiyati, falsafiy teranligi va tarbiyaviy ahamiyati bilan alohida o'rin tutadi. Asar tarkibidagi hikoyatlar inson ruhiyati, axloqiy kamolot va ma'naviy poklanish masalalarini ramziy obrazlar orqali ifodalashi bilan e'tibordir. Jumladan, qo'lga o'rgatilgan ayiq hikoyati ham insonning nodonlik, ishonch va oqibat masalalariga oid muhim g'oyalarni o'zida mujassam etgan. Bugungi ta'lim tizimida mumtoz asarlarni o'qitishda an'anaviy usullar bilan bir qatorda interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki interfaol metodlar o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashga undaydi hamda matn mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ayniqsa, ramziy va tasavvufiy mazmunga ega hikoyatlarni o'rganishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar samarali natija beradi. Mazkur maqolada qo'lga o'rgatilgan ayiq hikoyatini o'quvchilarga o'rgatishda qo'llaniladigan interfaol usullar, ularning dars samaradorligini oshirishdagi o'rni hamda o'quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

| T/r | ASLIYAT | NASRIY BAYONI |
|-----|--|---|
| 1. | "Ko'hiye" tog' ichra bir oyig' tutub, O'rgatib erdi oni ko'p qon yutub. | Bir tog'lik odam tog'dan ayiq tutib oldi va uni ko'p aziyat chekib, qo'lga o'rgatdi. |
| 2. | Rom bo'lg'uncha yeb erdi ul sayog', Kunda ikki qatla o'lguncha tayog'. | Ilgari sayoq yurgan ayiq egasiga o'rganguncha kunda ikki marta o'lar holda tayoq yerd. |

| | | |
|-----|--|--|
| 3. | Ochlig' birla tayog'i behisob, Ich-u toshin aylabon betu'shu tob . | Ochlik azobi va yegan behisob tayog'i ichi va tashini bemador qilgan edi. |
| 4. | O'ylakim solsa yog'och har chiradast , O'zga sori ul bo'lub tufroqqa past. | Shu sababli, zabardast egasi unga bir yog'och ko'rsatsa, ayiq yuvoshlik bilan unga bo'yin egardi. |
| 5. | Ham eshiklarda o'yunchilik etib, Ham uyijori o'tunchilik etib. | SHu tarzda ayiq ham ko'cha-ko'ylarda o'yinchilik qilib yurar, ham egasining uyiga o'tin tashib keltirar edi. |
| 6. | Yuklabon egniga beandoza yuk, Yuk tashirdin qolmayin egnida tuk. | Xo'jasi unga haddan ko'p yuk ortardi, ayiq yuk tashiyverganidan etanasida hatto bir tuk qolmagan edi. |
| 7. | Har jafokim mumkin o'lg'ay tortibon, Jahldin nafsida pindor ortibon. | U bu dunyoda qancha jabru jafu bo'lsa, hammasini tatib ko'rди, ammo jabr tortaverib nafsida takabburlik ortib ketdi. |
| 8. | Gah xayol aylabki qoplon boshini – Yonchqoy otib makru udvon toshini. | Natijada goh makru hiyla va xusumat toshi bilan qoplon boshini yanchib tashlayman, deb xayol qilardi. |
| 9. | Goh gumon ulkim, yo'luqsa sharza sher, Tu'ma aylab qornini yorib daler . | Goh dahshatli sher yo'liqsa ham, taom qilib, uning qornini yorib yuboradigan darajada o'zini baquvvat deb o'ylar edi. |
| 10. | Bu sifat tu'ma xayol etti base, Toki oxir bo'ldi itlar tu'masi. | U shu sifat har xil xom xayollarga berilib yurdi. Oxir-oqibatda uning o'zi bir kun itlarga yem bo'ldi. |
| 11. | “ Har zamon bu harza qilmoqtin gumon, Xalq ichinda sen hamonsen, ul hamon”. | “SHunday behuda aljirashing bilan xalq orasida sen ham xuddi o'sha ayiqning holiga tushgansan.” |

ALISHER NAVOIYNING “LISON UT-TAYR” DOSTONIGA KIRITILGAN “QO'LGA O'RGATILGAN AYIQ” HIKOYATINI QUYI SINIF O'QUVCHILARIGA O'RGATISH USULI

Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asarida keltirilgan “Qo'lga o'rgatilgan ayiq” hikoyatini quyi sinf o'quvchilariga bir nechta interfaol usullar yordamida tushuntirish mumkin. Mazkur vazifani quyida bir nechta metodlar orqali ko'rib chiqamiz.

Darsning maqsadi: O'quvchilarga kibr, xom xayol va jaholat tushunchalarini sodda tilda tushuntirish, kamtarlik va o'zini to'g'ri baholashning ahamiyatini anglatish, yaxshi va yomon

xulqni ajrata olishga o'rgatish hamda mustaqil fikrlash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Kirish: Dsrning avvalida o'qituvchi bugun o'rganiladigan hikoyatning mavzu va g'oyasi haqida qisqacha ma'lumot beradi. "Qo'lga o'rgatilgan ayiq" hikoyatida kibr va xom xayolning insonni halokatga olib borishi, kamtarlik va aql bilan ish tutish zarurligi talqin etilgani tushuntiriladi.

1-BOSQICH: O'QUVCHILARNI DARSGA QIZIQTIRISH

1. "Qiziq savol" metodi

Ushbu metod o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini shakllantiradi. O'quvchilar hikoyat matni bilan tanishmasdan avval ma'lum darajada uning mavzusiga ruhan tayyorlanadi.

O'qituvchi savol beradi:

1. Inson jisman va ma'nau quvvatli bo'lmagan holda o'zini kuchli qilib ko'rsatishi qanchalar mantiqqa to'g'ri keladi ?

2. Maqtanchoqlik odamga foyda keltiradimi?

O'quvchilar o'z fikrlarini aytadilar.

2- BOSQICH. ASOSIY QISM.

1. Hikoyani tinglash

O'qituvchi hikoyatni bolalarning yoshiga moslab, ifodali o'qib beradi.

Hikoyat mazmunini tushunishga yordam beruvchi savollar:

1. Ayiq qanday hayot kechirgan?

2. U nimani orzu qilardi?

3. Nega u halokatga uchradi?

2. "Charxpalak" texnologiyasi

Topshiriq: Quyidagi jadvalni hikoyat mazmuniga ko'ra to'ldiring. Mos ustunga "+" belgisi qo'ying.

Mazkur jadvalni yaratish natijasida o'quvchi hikoyat matni bilan yanada yaqin tanishadi. Hikoyatda insoniy fazilatlar qay darajada yoritilgani haqida tasavvurga ega bo'ladi.

| T/r | Hikoyat qahramoni ayiq portreti bog'liq o'rinlar | bosh bo'lgan bilan | Kamtarlik | Kibr (takabburlik) | Jaholat | Xom xayol | Mehnat-mashaqqat |
|-----|--|--------------------|-----------|--------------------|---------|-----------|------------------|
| 1. | Ayiq ko'p azob chekdi | | | | | | + |
| 2. | Ayiq bo'ysundi | egasiga | | | | | |

| | | | | | | |
|----|---|--|--|--|--|--|
| 3. | O'zini sher va qoplondan kuchli deb o'yladi | | | | | |
| 4. | Haddan ortiq yuk tashidi | | | | | |
| 5. | Xom xayollarga berildi | | | | | |
| 6. | Oxir-oqibat halokatga uchradi | | | | | |
| 7. | O'z kuchini noto'g'ri baholadi | | | | | |
| 8. | Ochlik va tayoq azobini tortdi | | | | | |

3. Wordwall" elektron progammasi asosidagi metod.


Mazkur anagrammadan o'quvchilar elektron doska, kompyuter uskuni yoki mobil aloqa vositalari roqali foydalanadi.

Topshiriq: berilgan atamalarni to'g'ri tartibda yozing.

Bu anagrammada o'quvchilarga hikoyatdagi atamalarning chalkash holati taqdim etiladi. O'quvchilardan esa ana shu atamalarni to'g'ri yozish talab qilinadi.

Mazkur interfaol usuldan foydalanish matn bilan o'quvchini yanada yaqinlashtiradi, hikoyat matnini yodda saqlab qolishda yordam beradi.

<https://wordwall.net/resource/107592455>



3-BOSQICH. YAKUNLOVCHI BOSQICH.

Darsning yakuniy qismida o'quvchilar hikoyat matni bilan yaqindan tanishib, hikoyat mavzusida ko'tarilgan mavzu va g'oyani anglab yetgach, dars jarayonida o'rganib anglaganlari yuzasidan bir **jumla** bilan xulosa aytishlari kerak. Masalan:

“Maqtanchoqlik yomon”, “Kamtar odam hurmat topadi”, “O’zini katta ko’rsatish foyda bermaydi” va hkz.

Har bir o’quvchi fikri eshitilgach, o’qituvchi yakunlovchi xulosa beradi.

ALISHER NAVOIYNING “LISON UT-TAYR” DOSTONIGA KIRITILGAN “QO’LGA O’RGATILGAN AYIQ” HIKOYATINI YUQORI SINIF O’QUVCHILARIGA O’RGATISH USULI

Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asarida keltirilgan “Qo’lga o’rgatilgan ayiq” hikoyatini yuqori sinf o’quvchilariga bir nechta interfaol usullar yordamida tushuntirish mumkin. Mazkur vazifani quyida bir nechta metodlar orqali ko’rib chiqamiz.

Darsning maqsadi: O’quvchilarga kibr, jaholat va xom xayol tushunchalarini falsafiy-axloqiy jihatdan chuqurroq anglatish, insonning o’zini anglash, o’z imkoniyatlarini real baholash va nafs tarbiyasining ahamiyatini tushuntirish. SHuningdek, badiiy asar orqali shaxsiy mas’uliyat, ichki kamolot va kamtarlik fazilatining hayotiy zarurat ekanini ochib berish hamda o’quvchilarda tanqidiy va mustaqil fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirish.

Kirish: Darsning avvalida o’qituvchi bugun o’rganilishi lozim bo’lgan hikoyatning mavzu va g’oyasi haqida qisqacha ma’lumot beradi:

Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoniga kiritilgan “Qo’lga o’rgatilgan ayiq” hikoyatida kibr, jaholat va xom xayol mavzusi talqin etilganligi, inson o’z imkoniyatini to’g’ri baholamasa va nafsiga erk bersa, bu hol uni halokatga olib borishi badiiy timsol orqali yoritilganini tushuntiriladi.

1-BOSQICH: O’QUVCHILARNI DARSGA QIZIQTIRISH

1."Assotsiatsiyalar zanjiri" metodi

Doskaga "erkinlik" va "qo’lga o’rgatilganlik" so’zlari yoziladi.

Topshiriq: Ushbu ikki holatning farqi va oqibatlarini haqida o’z fikrlarini qisqa tarzda bayon qiling.

Bu metod o’quvchilarni hikoyatdagi ayiqning holatiga ruhan tayyorlaydi. Ularga masalalarni o’zaro taqqoslash va mustaqil fikr yuritishda yordam beradi.

2- BOSQICH. ASOSIY QISM.

1."FSMU" texnikasi metodi.

Ushbu metod orqali o’quvchilar o’z fikrini bildirishni, bildirilgan fikrga sabablar keltirishni, sabablarni misollar orqali dalillashni va so’gida esa manashu hikoyatdan qanday xulosa chiqarayotganini yoritib beradi. O’quvchilar jadvalni quyidagi tartibda davom ettiradilar.

Topshiriq: Quyidagi jadvalni hikoyatdagi savdogar fojiasi va uning sabablari asosida to’ldiring.

| T/r | Bosqich | Mazmuni |
|-----|------------------------|--|
| 1 | F – Fikringizni ayting | Inson o'z imkoniyatini bilmasligi va asossiz kibriga berilishi uni halokatga olib keladi |

| | | |
|---|-------------------------|--|
| 2 | S – Sababini ko'rsating | |
| 3 | M – Misol keltiring | |
| 4 | U – Umumlashtiring | |

2.“ Learning apps” elektron progammasi asosidagi metod

Topshiriq: berilgan atamalarni izohlari bilan birlashtiring.

O'quvchilar berilgan atamalarni izohlari bilan birlashtiradilar.

Ushbu metod tasavvufiy ma'nodagi so'zlarni hozirgi kundagi muqobili bilan birlashtirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar ushbu metod orqali hikoyat matnini yanada aniq tushunish imkoniga ega bo'ladilar. Metod o'quvchilardan diqqatni bir

joyga jamlash va tezkorlikni talab qiladi.

<https://learningapps.org/watch?v=pqq9m1x1n26>



3-BOSQICH. YAKUNLOVCHI BOSQICH.

Darsning yakuniy qismida o'quvchilar hikoyat matni bilan yaqindan tanishib, hikoyat mavzusida ko'tarilgan mavzu va g'oyani anglab yetgach, har bir o'quvchi quyidagi gaplarni mantiqiy, tahliliy va hayotiy misollar bilan davom ettiradi:

1. “Hikoyat menga shuni anglatdiki, ...”
2. “Eng kuchli ramziy obraz bu ... chunki ...”
3. “Agar inson nafsiga qul bo'lsa, ...”
4. “Haqiqiy boylik bu — ...”

Har bir o'quvchi fikri eshitilgach, o'qituvchi yakunlovchi xulosa beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy.-T.:Akademnashr,2011.
- 2.Sirojiddinov Sh. Yusupova D.Davlatov O.Navoiyshunoslik.-T.:Tamaddun,2018.
- 3.Saidakbarova M. Tasavvuf va mumtoz poetika asoslari.-T.:2023.



4. Shamsiyev P. Ibrohimov S. Navoiy asarlari lug'ati. - T.: G'afur G'ulom, 1972.
5. Navoiy A. Lison ut-tayr. - T.: G'afur G'ulom, 2005.
6. Nurbayeva M. Alisher Navoiy ijodida ta'lim va tarbiyaning mushtarakligi. - T.: Fan, 2007.
7. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. - T.: Malik Print Co, 2021.
8. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. - T.: Fan, 2007.
9. https://uz.wikipedia.org/wiki/Lison_ut-tayr